



**Akerke BAXBERGENOVA,**  
*Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi*  
E-mail: [akerkeshokhankizi@gmail.com](mailto:akerkeshokhankizi@gmail.com)

*Qoraqalpoq davlat universiteti professori, PhD J. Seytjanov taqrizi asosida*

## ENGLISH LOANWORDS IN THE KOREAN LANGUAGE: HISTORICAL DEVELOPMENT, CAUSES, AND MECHANISMS OF BORROWING

Annotation

This article examines the process of English lexical borrowing in the Korean language from historical, sociolinguistic, and linguistic perspectives. The study is conducted using a diachronic approach based on theoretical frameworks established in Korean linguistics, and it analyzes the development of English loanwords across three main historical stages. The findings of the study contribute to a deeper understanding of the transformations occurring in the Korean lexical system under the global influence of the English language.

**Keywords:** Korean language, English loanwords, language contact, sociolinguistics, globalization, Konglish, lexical borrowing, phonetic adaptation, popular culture, linguoculturology.

## ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ, ПРИЧИНЫ И ПУТИ ЗАИМСТВОВАНИЯ АНГЛИЙСКИХ СЛОВ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается процесс заимствования английской лексики в корейском языке с исторической, социолингвистической и лингвистической точек зрения. Исследование проводится на основе диахронического подхода, опирающегося на теоретические положения, сформировавшиеся в корейской лингвистике, и анализирует развитие английских заимствований в трёх основных исторических этапах. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию изменений, происходящих в лексической системе корейского языка под глобальным влиянием английского языка.

**Ключевые слова:** корейский язык, английские заимствования, языковые контакты, социолингвистика, глобализация, Konglish, лексическое заимствование, фонетическая адаптация, популярная культура, лингвокультурология.

## KOREYS TILIGA INGLIZ TILIDAN SO'Z O'ZLASHISH TARIXI, O'ZLASHISH SABABLARI VA YO'LLARI

Аннотация

Mazkur maqolada koreys tiliga ingliz tilidan so'z o'zlashish jarayoni tarixiy, sotsiolingvistik va lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot koreys tilshunosligida shakllangan nazariy qarashlarga tayangan holda diaxron yondashuv asosida olib borilgan bo'lib, inglizcha o'zlashmalar rivojlanishi uch asosiy bosqich doirasida o'rganiladi. Tadqiqot natijalari ingliz tilining global ta'siri sharoitida koreys tilining leksik tizimida yuz berayotgan o'zgarishlarni tushunishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** koreys tili, inglizcha o'zlashmalar, til kontaktlari, sotsiolingvistika, globallashuv, Konglish, leksik o'zlashish, fonetik moslashuv, ommaviy madaniyat, lingvokulturologiya.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikda til kontaktlari natijasida yuzaga keladigan leksik o'zlashish jarayoni muhim ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Turli tillar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida bir tilning leksik birliklari boshqa til tizimiga kirib boradi va muayyan fonetik, morfologik hamda semantik moslashuv jarayonidan o'tadi.

Koreys tilida ham ingliz tilidan o'zlashmalar jarayoni mamlakatning tarixiy rivojlanishi, xalqaro aloqalarining kengayishi hamda globallashuv jarayonlari bilan bevosita bog'liq holda shakllangan. Ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Koreya jamiyatining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida yuz bergan o'zgarishlar ingliz tilining ta'sirini kuchaytirib, tilning leksik tarkibida yangi o'zlashma birliklarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilidan koreys tiliga o'zlashgan leksik birliklarni tarixiy, sotsiolingvistik va lingvistik jihatdan o'rganish til kontaktlari jarayonining mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Quyida mazkur mavzu doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va nazariy qarashlar tahlil qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Koreys tilshunoslari tomonidan ingliz tilidan o'zlashmalar koreys tilining tarixiy rivojlanish bosqichlari va tashqi madaniy

ta'sirlar bilan bog'liq holda izohlanadi[1], ularning shakllanishi va qo'llanishi esa ijtimoiy hamda madaniy kontekst bilan uzviy aloqada tahlil qilinadi [2] degan fikrlar mavjud. Xususan, koreys tilshunosi Sohn Ho-Min koreys tilidagi leksik o'zlashmalarni diaxron yondashuv asosida o'rganib, ularning paydo bo'lishi va kengayishini tarixiy davrlar bilan uzviy bog'laydi. Olim G'arb dunyosi bilan aloqalar kuchaygan bosqichlarni alohida ajratib ko'rsatadi: XIX asr oxiridagi missionerlik faoliyati va modernizatsiya jarayonlari bilan bog'liq ilk o'zlashmalar davri, 1945-yildan keyin AQShning siyosiy va madaniy ta'siri ostida inglizcha leksikaning faol kirib kelish bosqichi hamda 1990-yillardan boshlab globalizatsiya va ommaviy madaniyat ta'sirida yuzaga kelgan zamonaviy o'zlashmalar davri [3] deb guruhlar ajratib o'rgangan. Shu bilan birga, Lee Ki-Moon koreys tilining tarixiy rivojlanishini siyosiy va madaniy transformatsiyalar bilan bog'liq holda periodizatsiya qilib, o'zlashma qatlamini kelib chiqish manbalariga ko'ra tasniflaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda koreys tilida so'z o'zlashish jarayoni ilgari olib borilgan lingvistik izlanishlarda shakllangan nazariy qarashlarga tayangan holda diaxron yondashuv asosida davrlar kesimida qayta tasniflandi.

Tadqiqotning metodologik yo'nalishi va tahlil obyekti xususiyatlaridan kelib chiqib, o'zlashma jarayonini uch bosqichli periodizatsiya modeli doirasida ko'rib chiqish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq deb topildi. Shunga muvofiq, mazkur ishda o'zlashish jarayoni quyidagi uch asosiy bosqichga ajratildi;

1. Dastlabki davr (XIX asr oxiri - 1945-yilgacha): ilk aloqalar va Yaponiya ta'siri

2. Faol o'zlashish davri (1945 - 1980-yillar): AQSh ta'siri va modernizatsiya

3. Globallashuv davri (1980-yillardan hozirgacha): Internet, K-Pop va "Konglish"

Dastlabki davr (XIX asr oxiri - 1945-yilgacha): ilk aloqalar va Yaponiya ta'siri. Mazkur bosqich Koreyaning an'anaviy "yopiq eshiklar [4]" siyosatidan bosqichma-bosqich voz kechib, G'arb mamlakatlari bilan diplomatik, diniy va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yishi bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda koreys tiliga o'zlashmalar asosan modernizatsiya jarayonlari, missionerlik faoliyati hamda Yaponiya orqali bilvosita kirib kelgan ilmiy-texnik terminologiya ta'sirida shakllangan. Natijada yangi tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar paydo bo'lib, o'zlashish jarayoni til tizimining ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalar bilan uzviy bog'liqligini namoyon etadi. Mazkur bosqichda so'z o'zlashishiga turtki bo'lgan asosiy ekstralingvistik va lingvistik omillar quyidagilardan iborat:

Ekstralingvistik sabablar:

- Savdo va diplomatiya: G'arb davlatlari bilan savdo shartnomalari va diplomatik aloqalar yangi tovarlar va tushunchalarni olib keldi. *Market* - 마켓 (*ma-ket*), *price* - 프라이스 (*p'eu-ra-i-seu*), *sale* - 세일 (*se-il*) singari so'zlar.

- Yaponiya mustamlakasi (1910-1945): Bu davrda inglizcha so'zlar ko'pincha bevosita ingliz tilidan emas, balki Yaponiya orqali, yapon tilining fonetik va morfologik qoidalarga moslashgan holda kirib kelgan. Yaponiya o'sha paytda G'arb texnologiyalari va madaniyatini faol o'zlashtirayotgan edi. *Dress* - 드레스 (*deu-re-seu*)/ドレス (*doresu*),  *jumper* - 점퍼 (*jeom-p'eo*)/ジャンパー (*janpā*),  *bus* - 버스 (*beo-seu*)/버스 (*basu*),  *taxi* - 택시 (*t'haek-si*)/タクシ - (takushi),  *card* - 카드 (*k'a-deu*)/카드 (*kādo*),  *record* - 레코드 (*re-k'o-deu*)/レコード (*rekōdo*) kabi birliklar bunga yorqin misol bo'la oladi.

Lingvistik sabablar:

- Nominativ ehtiyoj: Koreys tilida yangi G'arb realiyalarini nomlash uchun so'zlarning yo'qligi. Masalan, *coffee* so'zi yaponcha *kōhī* orqali 커피 (*k'eo-pi*) shaklida o'zlashgan.

- O'zlashish yo'llari: Asosan yozma (kitoblar, diniy adabiyotlar) va bilvosita (yapon tili orqali) yo'llar. Og'zaki o'zlashish missionerlar va chet elliklar bilan bevosita muloqot qilgan kichik guruhlar orasida kuzatilgan.

Faol o'zlashish davri (1945 - 1980-yillar): AQSh ta'siri va modernizatsiya.

Ikkinchi jahon urushi va ayniqsa 1950-1953-yillardagi Koreya urushidan so'ng Janubiy Koreya geosiyosiy jihatdan AQShning kuchli ta'sir doirasiga kirib qoldi. AQShning siyosiy homiyligi, harbiy yordam dasturlari, iqtisodiy rekonstruksiya rejasi (Marshall modeliga o'xshash yondashuvlar), hamda Amerika harbiy bazalarining Koreyada uzoq muddat joylashgani koreys jamiyatining barcha qatlamlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ekstralingvistik sabablar:

- AQShning harbiy ishtiroki: Koreya urushidan keyin AQSh qo'shinlari 1950-yillardan boshlab shu kungacha Koreyada joylashib kelmoqda. Harbiy sohada ishlatilgan

terminlar, amaliy buyruqlar, texnik vositalarning nomlari va harbiy-madaniy birliklar to'g'ridan-to'g'ri ingliz tilidan olingan: tank - 탱크 (*t'haeng-k'eu*), missile - 미사일 (*mi-sa-il*),

- helicopter - 헬기 (*hel-gi*), radar - 레이더 (*re-i-deo*)

- Ta'lim tizimidagi islohotlar: Ingliz tili ta'limi kuchaytirildi, bu esa ingliz tilini bilishni ijtimoiy ko'tarilishning muhim omiliga aylantirdi. *Seminar* - 세미나 (*se-mi-na*), *lecture* - 렉처 (*rekcheo*), *report* - 리포트 (*ri-p'o-t'eu*), *project* 프로젝트 (*p'eu-ro-jeok-t'eu*)

Lingvistik sabablar:

- Nominativ ehtiyoj: Yangi texnologiyalar va ijtimoiy hodisalarni nomlash uchun koreys tilida muqobillarning yo'qligi. Masalan, *computer* so'zi 컴퓨터 (*k'heom-p'hyu-t'eo*) shaklida o'zlashgan.

Mavjud so'zlarni ixchamlashtirish. Koreys tilida ba'zi inglizcha o'zlashmalar mavjud mahalliy iboralarga nisbatan ancha qisqa va qulay bo'lgani uchun afzal ko'rilgan: masalan, elektron hisoblagich ma'nosidagi 전자 계산기 (*jeon-ja gye-san-gi*) o'rniga *computer* 컴퓨터 (*k'heom-p'hyu-t'eo*), muzli shirinlik degan 얼음 과자 (*eo-reum gwa-ja*) o'rniga *ice cream* 아이스크림 (*a-i-seu-k'eu-rim*), hamda 연예인 (*yeon-ye-in*) o'rniga *talent* 탤런트 (*t'hael-leon-t'eu*) kabi shakllar keng qo'llana boshladi.

Globallashuv davri (1980-yillardan hozirgacha): Internet, K-Pop va "Konglish". 1980-yillardan boshlab Janubiy Koreya jahon iqtisodiyoti va madaniy maydonning faol ishtirokchisiga aylandi. Bu davrda ingliz tilidan o'zlashmalar miqdori keskin oshib, yangi texnologiyalar, ommaviy madaniyat va global kommunikatsiya vositalari orqali til tizimiga chuqur singdi.

K-Pop, K-Drama va reklama sanoati inglizcha so'zlarning ommalashuviga yanada kuchli turtki bo'ldi. Pop-madaniyatdagi yuqori prestiji tufayli inglizcha birliklar ko'pincha uslubiy kuchaytirish, zamonaviylik, global identitet belgisi sifatida qabul qilina boshlandi. Koreys tilshunosi Doobo Shim buni "linguistic hybridity", ya'ni koreys va ingliz tillari aralashib, yangi madaniy mazmun yaratishi deb sharhlaydi. Masalan, 팬서비스 (*p'haen-seo-bi-seu*) / fan service, 아이돌 (*a-i-dol*) / idol, 콘서트 (*k'on-sep-teu*) / concert, 컴백 (*k'heom-baek*) / comeback kabi birliklar K-Pop diskursida mustaqil kategoriyalar sifatida shakllangan.

Shu jarayonda Konglish (콩글리쉬/ *k'hong-geul-li-ssi*) fenomeni paydo bo'ldi, bu inglizcha elementlarning koreys fonotaktikasi va grammatikasiga moslashgan, ba'zan esa asl ingliz ma'nosidan farq qiluvchi o'ziga xos shakllaridir. Koreys tilshunos olimi Ho-Min Sohn Konglishni "ingliz tilining koreys jamiyatida ijtimoiy-pragmatik talqin asosida qayta semantizatsiya qilinishi" [5] deb ta'riflaydi. Masalan, 핸드폰 (*haen-deu-p'hon*) (*hand phone* - mobil telefon), 오바이트 (*o-ba-i-t'eu*) (*overeat* - qayt qilish), 서비스 (*seo-bi-seu*) (*service* - bepul qo'shimcha) kabi birliklar global emas, aynan koreys madaniyati bilan bog'liq yangi mazmunga ega bo'lgan.

Ekstralingvistik sabablar:

- Axborot texnologiyalari inqilobi: Internet, mobil aloqa va kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi internet - 인터넷 (*in-t'eo-net*), *smartphone* - 스마트폰 (*seu-ma-t'eu-p'hon*), *Wi-Fi* - 와이파이 (*wa-i-p'a-i*), *blog* - 블로그 (*beul-lo-geu*), *chat*, *download*, *upload* kabi minglab yangi

terminlarni olib keldi. Bu so'zlar global tarmoqning ajralmas qismi sifatida o'zgarishsiz o'zlashdi.

– Lingvokulturologik nuqtai nazardan, **한류**/hal-lyu nafaqat madaniy eksport fenomeni, balki tilga yangi o'zlashmalar kirib kelishini tezlashtiruvchi sotsiomadaniy mexanizm sifatida ham baholanadi. Shu sababli **한류**/hal-lyu konsepti zamonaviy koreys tilshunosligida madaniyat, kommunikatsiya va leksik o'zgarishlar kesishgan nuqtadagi muhim ilmiy kategoriya sifatida ko'rib chiqiladi.

Lingvistik sabablar:

– Nominativ ehtiyoj: Yangi ijtimoiy-madaniy hodisalarni nomlash. Masalan, *selfie* o'rni **셀카** (*sel-k'a* - self-camera) so'zining paydo bo'lishi.

– "Konglish"ning rivojlanishi: Inglizcha morfemalardan foydalanib, koreys tilining o'ziga xos qoidalariga ko'ra yangi so'zlar va iboralar yaratish. Bu jarayon koreys tilining ijodiy salohiyatini ko'rsatadi va tilning o'zlashmalarni "o'zlashtirish" darajasini aks ettiradi.

**Tahlil va natijalar.** Globallashuv davrining eng xarakterli hodisalaridan biri esa "Konglish" deb ataluvchi gibrid leksik qatlamning shakllanishidir. Konglish inglizcha shaklga ega bo'lsa-da, koreyscha semantik yoki pragmatik xususiyatlarga ega bo'lgan birliklarni anglatadi. Masalan, "핸드폰" (*haendeup'on* /*hand phone*) ingliz tilida mavjud bo'lmagan, biroq koreys tilida "mobil telefon" ma'nosini bildiruvchi gibrid birlikdir; "아이쇼핑" (*aishyoping* /*eye shopping*) esa inglizchadagi *window shopping* konseptining koreyscha reinterpretatsiyasi sifatida yuzaga kelgan. Shuningdek, "서비스" (*seobiseu/ service*) so'zi koreys nutqida "bepul qo'shimcha" ma'nosini anglatib, asl inglizcha ma'nosidan semantik jihatdan siljiganini ko'rsatadi. Bu misollar inglizcha o'zlashmalar faqat fonetik moslashuv emas,

balki madaniy reinterpretatsiya orqali yangi ma'no qatlamiga ega bo'lishini tasdiqlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dastlabki bosqichda inglizcha birliklar asosan missionerlik faoliyati, savdo aloqalari hamda Yaponiya orqali bilvosita kirib kelgan. Ikkinchi bosqichda esa AQShning siyosiy va madaniy ta'siri natijasida inglizcha leksik birliklarning kirib kelishi sezilarli darajada kuchaydi. Globallashuv davrida esa internet, axborot texnologiyalari, ommaviy madaniyat va xalqaro kommunikatsiya inglizcha o'zlashmalar miqdorining keskin oshishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, ingliz tilidan o'zlashmalar koreys tilining fonologik, semantik va pragmatik tizimiga moslashib, ba'zan yangi ma'no va funksiyalarni ham kasb etishi kuzatildi. Ayniqsa, Konglish fenomeni inglizcha birliklarning koreys tilida qayta talqin qilinishini yaqqol namoyon etadi. Shuningdek, tadqiqot inglizcha o'zlashmalar koreys tiliga turli kommunikativ kanallar orqali kirib kelishini ko'rsatdi. Bu jarayon koreys tilining zamonaviy leksik tizimi shakllanishida ingliz tilining global ta'siri kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

– koreys tilidagi inglizcha o'zlashmalarni tizimli ravishda o'rganish va ularning fonologik hamda semantik moslashuv xususiyatlarini chuqurroq tadqiq etish;

– zamonaviy koreys tilida keng qo'llanilayotgan o'zlashma birliklarning normativ shakllarini aniqlash va lug'aviy manbalarda aks ettirish;

– inglizcha o'zlashmalarni o'rganishda sotsiolingvistik va lingvokulturologik yondashuvlarni keng qo'llash;

– koreys tiliga kirib kelayotgan yangi inglizcha terminlarni ilmiy va terminologik jihatdan tartibga solish.

Umuman olganda, ingliz tilidan o'zlashmalar koreys tilining zamonaviy rivojlanish jarayonida muhim o'rin egallab, tilning leksik tarkibini boyitish bilan birga global kommunikatsiya jarayonlarining til tizimiga ta'sirini ham aks ettiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Lee, K.M. (1997). *The History of the Korean Language*. Seoul: Taehaksa.
2. Sohn, H.M. (1999). *The Korean Language*. Cambridge: Cambridge University Press. Oh, H.-E. (2008).
3. Konglish: Korean English or English Korean? *English Today*, 24(2), 28–34.
4. Sohn, H.M. (1999). *The Korean Language*. Cambridge: Cambridge University Press. 445-468
5. Choson sulolasi davrida Koreya tashqi dunyo bilan aloqalarni cheklashga qaratilgan izolyatsion siyosat olib borgan bo'lib, tarixshunoslikda bu holat ko'pincha "yopiq eshiklar siyosati" yoki "Hermit Kingdom" konsepsiyasi bilan izohlanadi (Sohn, 1999; Lee & Ramsey, 2011; Cumings, 2005).
6. Sohn, H.M. (2001). *The Korean language*. Cambridge University Press.
7. Crystal D. *English as a global language*. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 212 p.
8. Haugen E. *The analysis of linguistic borrowing* // *Language*. – 1950. – Vol. 26, № 2. – P. 210–231.
9. Kang Y. *The emergence of phonological adaptation from phonetic adaptation: English loanwords in Korean* // *Phonology*. – 2010. – Vol. 27, № 3. – P. 225–253.
10. Kenstowicz M. *The phonetics and phonology of Korean loanword adaptation* // *MIT Working Papers in Linguistics*. – Cambridge: MIT Press, 2005.
11. Kim H.M. *Cultural politics of Korean wave: Globalization and cultural hybridity* // *International Journal of Cultural Studies*. – 2011.
12. Lee K.M., Ramsey S.R. *A history of the Korean language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 374 p.
13. Park J.S.Y., Wee L. *Markets of English: Linguistic capital and language policy in a globalizing world*. – London: Routledge, 2012. – 204 p.
14. Shim D. *Hybridity and the rise of Korean popular culture in Asia* // *Media, Culture & Society*. 2006.-Vol. 28, № 1.– P.25–44.
15. Sohn H.M. *The Korean language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 445 p.
16. Weinreich U. *Languages in contact: Findings and problems*. – New York: Mouton, 1953. – 148 p.